

## BOLALARDA ANEMIYA KASALLIGINI YUZAGA KELISHI

*Boltiboyeva Zulayxo Komiljon qizi*

*Endokrinologiya va gospital terapiya kafedrasи,*

*Gematologiya va transfuziologiya yo'nalishi 3-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada anemiya kasalliging turlari, ularni bolalarda qanday holatlarda kechishi hamda kasallikni oldini olishda zamonaviy va natijaviy usullardan foydalanish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kamqonlik, gemoglobin, pigment, eriyrotsit, yara, gipoxrom, temir moddasi, simptom.

Anemiya yoki kamqonlik atamasi ostida qon hajmining birligidagi qizil qon pigmentining (gemoglobin) yoki qizil qon tanachalarining (eritrositlar) yetishmasligi tushuniladi. Anemiya quyidagi sabablarga ega bo'lishi mumkin: o'tkir yoki surunkali qon yo'qotish (yara, operasiya, oshqozon-ichak sohasida qon yo'qotish); qon hujayralarining tez nobud bo'lishi yoki eritrositlar hayotining davomiyligining qisqarishi; bir xil, balanslashtirilmagan oziqlanish, qon uchun foydali bo'lgan elementlarning tanqisligi (oqsil, temir, foliy kislotasi, B12 vitamini, mis); ichakda muhim elementlarning so'rilishining buzilishi (surunkali oshqozon-ichak kasalliklari tufayli). Eng keng tarqalgan anemianing turidan biri bu — temir moddasining tanqisligidir. Uning oziq-ovqatlardagi yetishmovchiligi uning organizmdagi defisitga olib keladi. Qon tizimi yetarli darajada temir moddasini qabul qilmasa, u o'z navbatida gemoglobinning yetarli miqdorini ham ishlab chiqara olmaydi. Oqibatda esa eritrositlar unga yetarli darajada qoniqmasdan, organizm yetarli miqdorda kislorodga erishmaydi.

JSST statistikasi bo'yicha temir tanqisligi anemiyasi 25% holatlarda chaqaloqlarda, 4 yoshgacha bo'lgan bolalarda 43 % gacha, 5-12 yosh oraliq'idagi bolalarda 37 % va pubertat davridagi bolalarda esa 30 % holatlarda tashxislangan.

Anemiya holatini ko'pchilik ota-onalar jiddiy emas deb qaraydilar. Shunchaki ovqat tarkibida temir saqlovchi mahsulotlarni ko'proq berish bilan muammoning yechimini topdik deb o'ylashadi. Aslida, kamqonlik bola qon ishlab chiqarish tizimidagi o'zgarishlardan dalolat berib, keyinchalik bu holat jiddiy asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Anemiyada bolaning terisi rangsiz, oq bo'lib, bolaning tirnoqlari ostida, lablari va ko'zning shilliq qatlaming shunday rangda bo'lishi kuzatiladi. Agarda ushbu holatda bola o'zini toliqqan, e'tiborning susayishi, holsizlik hamda ishtahaning pasayishi qo'shsilsa albatta vrachga murojaat eting. Anemiya faqat qon taxlilidan so'ng aniq

belgilanadi. Aksariyat bolalar rangsiz yuz va toliqqan ko‘rinishda bo‘lsalar ham, kamqonlik kasalligidan aziyat chekmaydilar.

Anemiya – turli xildagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu holat ko‘plab kasalliklar asorati sifatida namoyon bo‘lib, turli xildagi simptomlar bilan kechadi va har bir holatning oqibati o‘ziga xos bo‘ladi. Shularni inobatga olib, tibbiyot sohasida tashxis qo‘yish va davolash oson bo‘lishi uchun anemiyaning bir necha xil klassifikatsiya tuzilgan.

*Rang ko‘rsatkichi bo‘yicha:*

Rang ko‘rsatkichi eritrotsitlarning gemoglobin bilan qanchalik darajada to‘yinganligini ko‘rsatib beradi. Normada bu ko‘rsatkich 0,8 dan 1,1 gacha bo‘ladi.

*Gipoxrom anemiya:*

Bolalarda eng ko‘p uchraydigan patologiya – gipoxrom anemiyada rang ko‘rsatkich 0,8 dan kichik bo‘ladi.

Anemiyaning bu shakliga quyidagilar kiradi:

- Temir tanqisligi anemiyasi – organizmida temir mikroelementi yetishmasligi natijasida gemoglobin sintezining kamayishi, bunga sabab ovqat mahsulotlarida temir kamligi yoki ko‘p qon yo‘qotish. Aynan shu ko‘rinishdagi anemiya bolalarda ko‘p uchraydi;
- Talassemiya (Kul anemiyasi) – gemoglobinlar genidagi irsiy mutatsiya, bunday bolalar aqliy va jismoniy rivojlanishdan ortda qoladilar.

Bolalarda anemiya toliqish, rangsizlik, ishtahaning yo‘qolishi, bosh og‘riqlari, teri quruqligi, tirnoq va sochlarning sinuvchanligi, og‘iz burchaklaridagi yoriqlar va turli yuqumli kasalliklarga tez chalinishlari bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Kasallikning og‘ir shakllarida qiyin nafas olish, bosh aylanish, tez yurak urishi, shilliq qatlamlarning o‘zgarishi (silliq malina rangidagi til, ta’m, hid sezishning o‘zgarishi, yutishning murakkablashishi), shu bilan birga jigar va taloqning shishishi ham kuzatiladi.

Agarda emizikli bola rangsiz, holsiz, ishtahasining bo‘g‘ilganligi, rivojlanishning sustligi va yuqiumli kasalliklarga tez chalinishi kuzatilsa — bu kamqonlikning belgilaridan biri bo‘lishi mumkin.

**Simptomlar:**

- Rangsiz lablar va tirnoqlar.
- Rangsiz ko‘zlar.
- Toliqish.
- Nafasning bo‘g‘ilishi
- Ishtahaning yo‘qligi
- Tez yurak urishi

Anemiyani shubha qilsangiz albatta bolani vrach nazoratidan o‘tkazing. Anemiya boshqa kasallikning simptomni bo‘lishi mumkin. Qonning taxliliga muvofiq vrach chindan ham bolangizda anemiya mavjudiligi haqida to‘liq axborotni beradi. Ayrim

hollarda kasalxonada yanada chuqurroq tekshirish amalga oshirilishi mumkin. Agarda anemiya temir moddasining yetishmovchiligi natijasida vujudga kelgan bo‘lsa, u holda vrach temir moddasi mavjud tomchi, sok yoki tabletka ko‘rinishidagi dori vositalarini yozib beradi. Muddatdan ilgari tug‘ilgan bolalarda yoki bola faqat ona suti bilan oziqlansa, profilaktik usul bilan temir moddali tomchilarni qabuli yordamida anemianing oldini olish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. В.В.Медведов. Ю.З.Вольчак.Клинико- лабораторная диагностика Под ред. акад 2006.
2. В.В.Медведов. Ю.З.Вольчак.Клиническая лабораторная диагностика справочник для врачей .Под редакцией проф. И.А. ЗУПАНЦА 1995.
3. Бышевский А.Ш., Терсенов О.А. Биохимия для врача. – Екатеринбург: «Уральский рабочий», 1994.
4. Клиническая биохимия / Под ред.А.Я.Цыганенко, В.И.Жукова, В.В.Мясо-едова, И.В.Завгороднего. – М.: «Триада – Х», 2002.
5. Козловская Л.В., Мартынова М.А. Учебное пособие по клиническим лабораторным методам исследования (с элементами программирования) / Под ред. акад. Е.М. Тареева, проф. А.В. Сумрокова. — М.: Медицина.